

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
QISHLOQ XO‘JALIGI VAZIRLIGI
TOSHKENT DAVLAT AGRAR UNIVERSITETI**



**“KORRUPSIYAGA QARSHI KURASHISH
“KOMPLAENS NAZORAT” TIZIMINI
BOSHQARISH” BO‘LIMI
NIZOMI**

TOSHKENT – 2025 yil

“TASDIQLAYMAN”
Toshkent davlat agrar universiteti
rektori _____ N.Oblomuradov
“ _____ ” _____ 2025 yil

“Korrupsiyaga qarshi kurashish “Komplaens nazorat”
tizimini boshqarish bo‘limining
NIZOMI

I. UMUMIY QOIDALAR

“Korrupsiyaga qarshi kurashish “Komplaens nazorat” tizimini boshqarish” bo‘limining faoliyati O‘zbekiston Respublikasining 2017-yil 3-yanvardagi “Korrupsiyaga qarshi kurashish to‘g‘risida”gi O‘RQ-419-son Qonuni, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 13-yanvar “Korrupsiyaga qarshi kurashish ishlarining samaradorligini reyting baholash tizimini joriy etish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-81-son hamda 2021-yil 6-iyundagi “Korrupsiyaga qarshi kurashish faoliyatini samarali tashkil etishga doir qo‘shimcha choraa-tadbirlar to‘g‘risida”gi PQ-5177-son Qarorlari, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 24-dekabrda “Davlat oliy ta‘lim muassasalarining akademik va tashkiliy-boshqaruv mustaqilligini ta‘minlash bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi PQ-60-son qarori, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 24-dekabrda “Davlat oliy ta‘lim muassasalariga moliyaviy mustaqillik berish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-61-son qarori asosida amalga oshiriladi.

“Korrupsiyaga qarshi kurashish “Komplaens nazorat” tizimini boshqarish” bo‘limi o‘z faoliyatida O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasiga va qonunlariga, O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining qarorlariga, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining farmonlari, qarorlari va farmoyishlariga, O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Maxkamasining qarorlari va farmoyishlariga, Vazirlik buyruqlariga va Hay‘ati qarorlariga, mazkur nizom, Universitetning ichki buyruqlari, shuningdek boshqa qonun hujjatlariga amal qiladi.

Mazkur Nizom yagona, tashkiliy-uslubiy asosida Universitet “Korrupsiyaga qarshi kurashish “Komplaens nazorat” tizimini boshqarish” bo‘limining faoliyatini yoritib beruvchi asosiy me‘yor va prinsiplarni belgilaydi.

“Korrupsiyaga qarshi kurashish “Komplaens nazorat” tizimini boshqarish” bo‘limi boshlig‘i Universitetning bo‘ysunuvidagi vazirlik va idoralar bilan kelishilgan holda Universitet rektorining buyrug‘iga muvofiq belgilangan tartibda lavozimga tayinlanadi va lavozimidan ozod etiladi tegishli tartibda imtiyoz va proferensiyalarga ega bo‘lishi mumkin.

Bo‘lim boshlig‘i lavozimiga oliy ma‘lumot(magistr)ga va oliy ta‘lim sohasida besh yillik mehnat stajiga ega bo‘lgan shaxs tayinlanadi.

Bo‘limning ish rejasi Universitet rektori tomonidan tasdiqlanadi va o‘z faoliyati haqida Universitet rektori, Qishloq xo‘jaligi vazirligi hamda Oliy va o‘rta maxsus ta‘lim vazirligining “Komplaens nazorat va korrupsiyaga qarshi kurashish bo‘limi” ga hisobot beradi.

Bo‘lim xodimlarining shtat birligi va umumiy ish haqi fondi qonunchilik hujjatlarida o‘rnatilgan tartibda belgilanadi.

Bo'lim o'z faoliyatini amalga oshirishda Universitetning boshqa tarkibiy bo'linmalari, fakultetlari, kafedralari bilan o'zaro hamkorlik qiladi.

Bo'limga xodimlarni ishga qabul qilish O'zbekiston Respublikasining me'yoriy-huquqiy hujjatlarida belgilangan tartibda amalga oshiriladi.

II. BO'LIMNING MAQSAD VA VAZIFALARI

2.1. Bo'limning maqsadi - Toshkent davlat agrar universitetining "Korrupsiyaga qarshi kurashish "Komplaens nazorat" tizimini boshqarish" bo'limi O'zbekiston Respublikasining 2017-yil 3-yanvardagi "Korrupsiyaga qarshi kurashish to'g'risida"gi O'RQ-419-son Qonuni, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 13-yanvar "Korrupsiyaga qarshi kurashish ishlarining samaradorligini reyting baholash tizimini joriy etish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-81-son hamda 2021-yil 6-iyundagi "Korrupsiyaga qarshi kurashish faoliyatini samarali tashkil etishga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi PQ-5177-son Qarorlarida belgilangan vazifalarning bajarilishi, o'quv, ta'lim-tarbiya jarayonida O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmon va Qarorlari, Vazirlar Mahkamasining Oliy ta'lim sohasiga oid qarorlari, Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligining me'yoriy hujjatlari va uslubiy ko'rsatmalarini ijro etilishini o'z vaqtida bajarilishini nazorat va tahlil qiladi.

2.2. Bo'limning asosiy faoliyati va vazifalari

2.2.1. "Korrupsiyaga qarshi kurashish "Komplaens nazorat" tizimini boshqarish" bo'limi o'z faoliyatini O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi, O'zbekiston Respublikasining "Korrupsiyaga qarshi kurashish to'g'risida"gi Qonuni, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni, Qarori va farmoyishlariga, Vazirlar Mahkamasining Qarorlari, Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligining buyruqlari, Hay'at qarorlarining Universitetda mazkur Nizomga muvofiq nazoratini amalga oshirishda quyidagi asosiy vazifalarni bajaradi:

2.2.2. Universitetda korrupsiyaga oid huquqbuzarliklarni va qonun buzilishlarini profilaktika qilish va ularga qarshi kurashish;

2.2.3. Universitetda ichki hujjatlarida aniqlangan korrupsiyaviy normalarni bartaraf qilish bo'yicha takliflar ishlab chiqadi;

2.2.4. Universitetda korrupsiyaviy xavf-xatarlarni baholaydi va ularni kamaytirish yuzasidan chora-tadbirlar rejalarini ishlab chiqadi;

2.2.5. Universitetning professor-o'qituvchilari, ilmiy xodimlar, boshqaruv, muhandis-texnik, ma'muriy-xo'jalik, ishlab chiqarish va o'quv-yordamchi xodimlarining xatti-harakatlaridagi korrupsiyaviy xavf-xatarlar va huquqbuzarliklar haqida kelib tushadigan murojaatlar va anonim xabarlarni ko'rib chiqadi hamda o'rnatilgan tartibda choralar ko'radi;

2.2.6. Universitetda korrupsiya faktlariga doir xizmat tekshiruvlari reestrini yuritib boradi;

2.2.7. davlat xaridlarini amalga oshirishda manfaatlar to'qnashuvini tahlil qilishda va kontragentlarning ishonchliligini tekshirishda ishtirok etadi;

2.2.8. Universitet xodimlari o'rtasida manfaatlar to'qnashuvi monitoringini yuritadi va tegishli takliflar kiritadi;

2.2.9. Universitetning professor-o'qituvchilari, ilmiy xodimlar, boshqaruv, muhandis-texnik, ma'muriy-xo'jalik, ishlab chiqarish va o'quv-yordamchi xodimlari o'rtasida muntazam ravishda profilaktik suhbatlar tashkil etib boradi;

2.2.10. Universitet faoliyatida korrupsiyaviy holatlarni aniqlash maqsadida professor-o'qituvchilari, ilmiy xodimlar, boshqaruv, muhandis-texnik, ma'muriy-xo'jalik, ishlab chiqarish, o'quv-yordamchi xodimlar, talabalar (magistrantlar) o'rtasida so'rovlar o'tkazadi;

2.2.11. so'rovlar, ijtimoiy va boshqa tadqiqotlar asosida korrupsiyaga qarshi kurashish targ'iboti bo'yicha chora-tadbirlar natijalari va ta'sirini muntazam ravishda baholab boradi hamda keyingi chora-tadbirlarni belgilashda baholash natijalaridan foydalanadi;

2.2.12. professor-o'qituvchilar, talaba-yoshlar o'rtasida korrupsiyaga qarshi kurashishga qaratilgan konferensiyalar, uchrashuvlar, seminarlar, tanlovlar tashkil etadi;

2.2.13. Universitetda korrupsiyaga qarshi kurashish sohasida qabul qilinayotgan chora-tadbirlarning samaradorligini baholaydi;

2.2.14. Universitetda korrupsiyaga oid huquqbuzarliklar sodir etilishining shart-sharoitlari va sabablarini o'rganadi, shuningdek ularni bartaraf etish bo'yicha takliflarni ishlab chiqadi;

2.2.15. Universitetning rasmiy veb-saytida "Korrupsiyaga qarshi kurashish" bo'limidagi ma'lumotlarni muntazam ravishda yangilab borilishini ta'minlaydi;

2.2.16. har chorakda va zaruratga ko'ra korrupsiyaga qarshi kurashish bo'yicha amalga oshirilgan ishlar hamda Universitetdagi korrupsiyaviy vaziyat haqida rektorga hamda Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligining komplaens nazorat va korrupsiyaga qarshi kurashish bo'limiga hisobot beradi;

2.2.17. Qishloq xo'jaligi vazirligi Ba Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligining komplaens nazorat va korrupsiyaga qarshi kurashish bo'limi hamda korrupsiyaga qarshi kurashish bo'yicha faoliyatni amalga oshiruvchi boshqa davlat organlari va tashkilotlari, ota-onalar bilan korrupsiyaga qarshi kurashish sohasida samarali hamkorlikni yo'lga qo'yadi;

2.2.18. Universitet huzuridagi akademik litseyning korrupsiyaga qarshi kurashish yo'nalishdagi faoliyati ustidan nazorat o'rnatadi;

2.2.19. Universitetda korrupsiyaga qarshi amalga oshirilgan ishlar monitoringini yuritadi, tahliliy materiallarni rahbariyatga hamda vazirlikka kiritib boradi.

III. BO'LIMNING HUQUQ VA MAJBURIYATLARI

3.1. Bo'lim quyidagi huquqlarga ega:

3.1.1. Universitetga ishga qabul qilish, xodimlarni attestasiyadan o'tkazish, talaba (magistrant, doktorant, mustaqil izlanuvchi)larni imtihonlari (yakuniy, oraliq, malakaviy, yakuniy davlat attestasiyasi, diplom himoyasi) jarayonlarini bevosita yoki

videotranslyatsiya orqali kuzatib borish, mazkur jarayonlarda korrupsiyaviy xavf-xatarlarni aniqlash;

3.1.2. Universitetning professor-o'qituvchilari, boshqaruv, texnik, xizmat ko'rsatuvchi va o'quv-yordamchi xodimlaridan ularning vakolatiga kiruvchi masalalar yuzasidan tahliliy materiallar, xulosalar, birlamchi va boshqa tasdiqlovchi hujjatlarni, statistik va boshqa ma'lumotlarni so'rash, talab qilish va olish;

3.1.3. Xizmat majburiyatlarini bajarish doirasida Universitet xodimlaridan zarur yordam so'rash va olish, zarur hollarda ishchi guruhlar tashkil etish;

3.1.4. Universitetning kengashi majlisi yig'ilishlarida ishtirok etish;

3.1.5. Universitet rektoriga komplaens nazorat va korrupsiyaga qarshi kurashish masalalariga oid takliflar kiritish;

3.1.6. O'zbekiston Respublikasi qonunlari, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Farmonlari, qarorlari, farmoyishlari va topshiriqlari, Hukumat qarorlari, farmoyishlari va topshiriqlari ijrosini nazorat qilish;

3.1.7. Vakolati doirasida tekshiruvlar o'tkazish, hujjatlarni talab qilish, Universitetning professor-o'qituvchilari, ilmiy xodimlar, boshqaruv, muhandis-texnik, ma'muriy-xo'jalik, ishlab chiqarish va o'quv-yordamchi xodimlari, talaba (magistrant)dan yozma tushuntirishlar olish, jinoyat alomatlari aniqlangan hollarda tegishli huquqni muhofaza qiluvchi organlarga subordinatsiya asosida xabar berish;

3.1.8. Universitetda va unga tegishli ta'lim muassasalarida bo'ladigan barcha turdagi kengashlarda ishtirok etish;

3.1.9. O'z faoliyati doirasida Universitetning tarkibiy bo'linmalariga ko'rsatmalar va tavsiyalar berish;

3.1.10. Qonunchilik hujjatlariga muvofiq boshqa huquqlarga ham ega bo'lishi mumkin.

3.2 Bo'limning majburiyatlari

“Korrupsiyaga qarshi kurashish “Komplaens nazorat” tizimini boshqarish” bo'limiga o'z faoliyati davomida quyidagi majburiyatlar yuklatilgan:

3.2.1. o'ziga yuklangan vazifalarning tegishli darajada va samarali bajarilishi;

3.2.2. o'ziga yuklangan funksiyalarning bajarilishi hamda ijro intizomini ta'minlash talablarini bajarilishi;

3.2.3. Universitet rahbariyatiga axborot berish uchun materiallar va hujjatlarning belgilangan muddatlarda bajarilishini ta'minlash;

3.2.4. Universitetda komplaens nazorat va korrupsiyaga qarshi kurashish faoliyati bo'yicha amalga oshirilayotgan ishlar holati;

3.2.5. Jismoniy va yuridik shaxslar murojaatlarining o'z vaqtida ko'rib chiqilishi hamda qonunchilik hujjatlari asosida hal etilishi uchun javob beradi.

IV. BO'LIM FAOLIYATINI TASHKIL ETISH

4.1. Bo'limni boshqarish mehnat shartnomasiga asosan, Universitet rektorining buyrug'i bilan lavozimiga tayinlanadigan va lavozimidan ozod etiladigan bo'lim boshlig'i tomonidan amalga oshiriladi.

4.2. Bo'lim xodimlari o'rtasida vazifalarni taqsimlash uning boshlig'i tomonidan amalga oshiriladi.

4.3. Boshliq bo‘lim faoliyatiga rahbarlik qiladi va uning nomidan ish yuritadi.

4.4. Yuritiladigan barcha hujjatlar bo‘lim boshlig‘i hamda Universitet rektori tomonidan shaxsan imzolanadi va Universitet muhri bilan tasdiqlanadi.

4.5. Bo‘lim xodimlari o‘z faoliyatlarini mazkur Nizom asosida va uning ilovasida keltirilgan lavozim yo‘riqnomalariga muvofiq amalga oshiradi.

4.6. Universitetning kengash qarorlari va rektor buyruqlari bo‘lim bilan majburiy tartibda kelishiladi.

4.7. Bo‘lim boshlig‘i o‘z zimmasiga yuklatilgan vazifalarni bajarish uchun shaxsan javobgar xisoblanadi.

V. BO‘LIMNING TARKIBIY TUZILISHI

5.1. “Korrupsiyaga qarshi kurashish “Komplaens nazorat” tizimini boshqarish” bo‘limi lavozimlarining tarkibi Universitet ustavidan kelib chiqib, oliy ta’lim muassasasiga ajratilayotgan mablag‘ va ish haqining umumiy chegarasida belgilanadi.

5.2. “Korrupsiyaga qarshi kurashish “Komplaens nazorat” tizimini boshqarish” bo‘limi quyidagi shtat birliklarini o‘z ichiga oladi:

1. Bo‘lim boshlig‘i - 1 nafar;

2. Bosh mutaxassis - 1 nafar;

5.3. Universitet rektori tomonidan bo‘lim xodimlari faoliyatini Universitet barcha xodimlarini rag‘batlantirish va taqdirlash bilan birgalikda belgilangan tartiblar asosida alohida rag‘batlantirish, taqdirlash va qo‘shimcha haq berish orqali amalga oshirilishi mumkin.

VI. BO‘LIMNING JAVOBGARLIGI

6.1. Bo‘lim boshlig‘i va xodimlari lavozim Yo‘riqnomalaridagi o‘z majburiyatlarini bajarmaganligi yoki lozim darajada bajarmaganligi uchun qonun hujjatlariga muvofiq javobgarlikka tortiladilar.

6.2. O‘zining faoliyatini amalga oshirish jarayonida qilgan huquqbuzarlik uchun - O‘zbekiston Respublikasida o‘rnatilgan amaldagi ma’muriy, jinoiy va fuqarolik bo‘yicha qonunchilik doirasida;

6.3. Tashkilotga yetkazilgan moddiy zarar uchun - O‘zbekiston Respublikasida o‘rnatilgan amaldagi mehnat va fuqarolik bo‘yicha qonunchilik doirasida.

VII. YAKUNIY QOIDALAR

7.1. “Korrupsiyaga qarshi kurashish “Komplaens nazorat” tizimini boshqarish” bo‘limi faoliyatini qayta tashkil etish va tugatish qonun hujjatlarida belgilangan tartibda amalga oshiriladi.

**“Korrupsiyaga qarshi kurashish
“Komplaens nazorat” tizimini
boshqarish” bo‘limi boshlig‘i**

A.Tashmuxamedov